



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 6 (8)  
2026**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**6**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2026**

**MUNDARIJA**

|                                                                                                                                                                                |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Karabayev R.Z.</b> Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari.....                                                                    | 8   |
| <b>Ubaydullayeva N.A.</b> Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes korxonalarining rivojlanish strategiyalari: nazariy yondashuvlar.....                                    | 11  |
| <b>Xatamov A.A.</b> Raqamli transformatsiya asosida ixtisoslashtirilgan savdo majmualarida moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirish.....                           | 15  |
| <b>Yokubjonova X.Yo.</b> Co-marketing strategiyasining ekoturizmni brendlashiga integratsiyasi: metodologik yondashuv va amaliy natijalar.....                                 | 19  |
| <b>Yusupova M.B., Jamoliddinova (Usmonova) S.S.</b> Ustama xarajatlarni tasniflash va uning mahsulot tannarxini shakllantirishdagi ahamiyati.....                              | 24  |
| <b>Abdug‘ofurova O.M., Yusupova M.B.</b> Ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni kalkulyatsiya qilish va uni takomillashtirish yo‘llari.....                                  | 27  |
| <b>Xojiboyev M.Sh.</b> Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston nodavlat oliy ta’lim muassasalari boshqaruv hisobi tizimiga moslashtirish: nazariy asoslar va amaliy istiqbollari..... | 31  |
| <b>Исраилова Д.К.</b> Глобализация в условиях демографического кризиса: социально-экономические риски.....                                                                     | 38  |
| <b>Qurbonova X.I.</b> Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash va inqirozga qarshi siyosati.....                                                  | 43  |
| <b>Asqarov A.H.</b> Oliy o‘quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni aniqlash me’zonlari (noiqtisodiy yo‘nalishi talabalar misolida).....                                 | 47  |
| <b>Yunusova S.A., Turg‘unboyev A.A.</b> Eko-mehmonxona tushunchasi, turlari va asosiy xususiyatlari.....                                                                       | 51  |
| <b>Barnayev Z.Sh.</b> Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari raqobatbardoshligining mazmun-mohiyati va xususiyatlari.....                                                        | 55  |
| <b>Bobokulov A.A.</b> Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy integratsiyaga ta’siri.....                                                      | 59  |
| <b>Рахимжонов Б.Б., Рахимжонов Б.Б.</b> Инновационные процессы как фактор развития промышленных предприятий.....                                                               | 63  |
| <b>Matmusayev M.O.</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari.....                                                 | 67  |
| <b>Raxmatjonova G.E.</b> Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vositalari buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar talablari bo‘yicha takomillashtirish.....                  | 72  |
| <b>Kamoldinova N.A.</b> Ayollar tadbirkorligi faoliyatida raqamli integratsiya darajasini baholash.....                                                                        | 76  |
| <b>Xaitova M.K.</b> Raqamli platformalar orqali biznes modellarini yangilash va kompaniyalar strategik imkoniyatlarini kengaytirish.....                                       | 81  |
| <b>Yo‘ldashev M., Sotvoldiyev U.</b> Davlat byudjetini taqchilligi va uni kamaytirish mexanizmlari.....                                                                        | 85  |
| <b>Maribjonov B.I., Arabboyev J.S.</b> Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining 4-guruh xarajatlarining tahlili.....   | 88  |
| <b>Ro‘ziyev Sh.Sh.</b> Hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari.....                                                      | 92  |
| <b>Nematov G‘.G‘., Sotvoldiyev U.K.</b> O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy asoslari va istiqbollari: deкупpling indeksi tahlili.....                      | 95  |
| <b>Karimov D.M., Mustafayeva H.</b> Xorij tajribasi asosida O‘zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish....                                                               | 99  |
| <b>Ermatova S.I.</b> Sanoat korxonalarida majburiyatlar tarkibi va moliyaviy barqarorlikning empirik tahlili (Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalari misolida).....        | 104 |
| <b>Ermatov M.S.</b> Sun’iy intellekt va mehnat bozorida raqamli inqilob: tahdidmi yoki kelajak imkoniyatimi?....                                                               | 107 |
| <b>Azizova H.A.</b> Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyatini takomillashtirish yo‘llari.....                             | 111 |
| <b>Юсупов А.С., Джангабаева Г.П.</b> Международный рынок акций: содержание, виды и особенности..                                                                               | 114 |
| <b>Xusanova Z.R.</b> Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning xususiyatlari.....                                   | 119 |
| <b>Abdulazizov A.A.</b> Energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....                                        | 122 |
| <b>Norov A.E., Fazliddinov Sh.Sh., Erkinov X.X.</b> Liderlik va motivatsiya o‘rtasidagi munosabatga ta’sir etuvchi omillar.....                                                | 126 |
| <b>Атаханова Ш.С., Мирхамидова Д.Н.</b> Цифровая трансформация как инструмент достижения ESG-целей в нефтегазовой сфере Республики Узбекистан.....                             | 131 |
| <b>Toxirov J.R.</b> Mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli marketing asosida savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish.                                                              | 136 |

## “YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

|                                                                                                                                                                    |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Sulaymonova F., Ro‘zimov B.</b> Online ta’lim xizmatlari bozorining kengayishi natijasida an’anaviy ta’lim sektorida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar..... | 140 |
| <b>Zayavitdinova N.M.</b> Hududda xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....                                       | 143 |
| <b>Odilova M.A.</b> Kimyo sanoatidagi korxonalar faoliyatida resurslardan samarali foydalanish.....                                                                | 147 |
| <b>Axmedova D.N.</b> Mintaqaviy raqamli tayyorlik indeksining hududiy iqtisodiy o‘lishga ta’siri.....                                                              | 151 |
| <b>Sapayeva N.K.</b> O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yashil transformatsiya va B2B raqamli marketing asosida barqaror rivojlanish modeli.....                  | 155 |
| <b>Allayarov S.</b> Startup financing mechanisms: a comparative analysis of angel investment, venture capital, bank lending, and state grants.....                 | 158 |
| <b>Махмудов О.Х.</b> Moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan aloqadorligi.....                                                                           | 162 |
| <b>Ibragimova M.M.</b> “Yashil iqtisodiyot” va “Yashil tadbirkorlik” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va evolyusion transformatsiyasi.....                      | 167 |
| <b>Olimjonov A.</b> Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish.....  | 171 |
| <b>Rakhimboeva B.D.</b> Analysis of the economic situation of the development of export activities of small businesses in Uzbekistan.....                          | 174 |
| <b>Raxmatova F.Y.</b> To‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyot modelini joriy etishning iqtisodiy mexanizmlari.....                                         | 178 |
| <b>Ergasheva A.F.</b> Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash va bozorda pozitsiyalashning strategik yondashuvlari.....                                    | 181 |
| <b>Navruzova G.U.</b> Theoretical models and institutional mechanisms, forms and structures of cooperation between education and manufacture.....                  | 184 |
| <b>Djumayeva S.K.</b> Yashil investitsiya muhitini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’siri (O‘zbekiston hududlari misolida).....           | 188 |
| <b>Pardayev TN., Muqimov A.R. Boymirzayev K.M.</b> Jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlardan bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish..... | 193 |
| <b>Ибодуллоева З.С.</b> Экономические стимулы внедрения водосберегающих технологий в аграрном секторе Узбекистана.....                                             | 199 |
| <b>Ibragimova G.S.</b> Ta’lim sifatini yaxshilashda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar.....                                                             | 203 |
| <b>Raxmatova S.S.</b> Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....                                                               | 207 |
| <b>Umarova M.M.</b> Foreign brand spillovers and export performance of smes in emerging economies: a panel data analysis.....                                      | 212 |
| <b>Karimova F.A.</b> Ekoturizmni barqaror rivojlantirishning xorijiy tajribasi va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....                                 | 217 |
| <b>Raxmanov B.I.</b> Investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish.....                                                                    | 221 |
| <b>Ashurova G.N.</b> Charm-poyabzal sanoati korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘llari.....                                              | 225 |
| <b>Axmadjanov I.I.</b> Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....                           | 228 |
| <b>Эгамназарова Г.Ш.</b> Рақамли тенгсизлик: давлатлар ва тармоқлар ўртасидаги технологик узилишларни камайтириш йўллари.....                                      | 232 |
| <b>Mamanazarov M.A.</b> Iqtisodiy o‘lishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorij tajribasi.....                                  | 236 |
| <b>Химматов А.Х.</b> Йўл корхоналарини хусусийлаштиришнинг афзалликлари ва оқибатлари.....                                                                         | 241 |
| <b>Kambaraliyeva I.S.</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining transformatsiyasi va raqamli ko‘nikmalarning ahamiyati.....                             | 244 |
| <b>Muxiddinov T.Sh.</b> Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....                                                                | 248 |
| <b>Sayxdodjayeva N.I.</b> Ijtimoiy va ekologik audit: barqaror rivojlanishni ta’minlashda zamonaviy nazorat mexanizmi.....                                         | 253 |
| <b>Fayzullayev J.N.</b> Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....                                                               | 257 |
| <b>Tursunova N.X.</b> «Xayot sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi roli».....                                    | 261 |
| <b>Abdishukurova G.M., Bozorboyev A.R.</b> Sug‘urta kompaniyasi balansini “Risk tetraedri” modeli asosida baholash.....                                            | 266 |
| <b>Abdurasulova M.O.</b> Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi asoschilari.....                                                                                         | 270 |

|                                                                                                                                                                                     |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Vaxidov A.</b> Buxgalteriya hisobining tarkibiy tuzilishi - moliyaviy va boshqaruv hisobi.....                                                                                   | 273 |
| <b>Turg‘unova T., Muftaydinov Q.</b> Iqtisodiy zonalarda ekologik tadbirkorlikni investitsion va innovatsion qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribalari.....                        | 277 |
| <b>Kurbanov F.U.</b> Raqamli iqtisodiyotning moliyaviy xizmatlar bozoriga ta’siri.....                                                                                              | 283 |
| <b>Umarov T.S.</b> Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini statistik baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....                                   | 287 |
| <b>Rahimova N.A.</b> Kichik biznes subyektlarida inson resurslarini boshqarish tizimidagi muammolari va ularni bartaraf etishda zamonaviy yondashuvlar.....                         | 291 |
| <b>Yangiboyev U.A.</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy menejment tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari.....                      | 295 |
| <b>Махкамова Н.С.</b> Роль зеленых облигации в финансировании проектов устойчивого развития.....                                                                                    | 299 |
| <b>To‘xtarova F.Y.</b> Analysis of tourism insurance practices and their economic efficiency.....                                                                                   | 304 |
| <b>Anvarov Sh.D.</b> O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsion muhitni rivojlantirishning institutsional va infratuzilmaviy omillari.....                                | 308 |
| <b>Xalmirzayev O.A.</b> Ko‘p obyektli savdolarida Vickrey-Clark-Groves mexanizmining samaradorligi tahlili....                                                                      | 313 |
| <b>Zaidov I.I.</b> Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida raqobat munosabatlarini boshqarish mexanizmlari.....                                                                     | 318 |
| <b>Rahimova N.A.</b> Inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligiga ta’siri.....                                                                                    | 321 |
| <b>Gulimboyev S.I., Rejapov X.X.</b> O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim kreditlarining iqtisodiy ahamiyati....                                                                 | 324 |
| <b>Bardiyev S.U.</b> Mintaqada raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholash: Xorazm viloyati misolida.....                                                            | 328 |
| <b>Qulmatova S.S.</b> Mahalla tizimida oziq-ovqat ta’minoti zanjirini IoT va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida intellektual boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish..... | 332 |
| <b>Aminov S.S.</b> Mintaqada qurilish sohasidagi innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar.....                                                                              | 336 |
| <b>Дадабоева М.М.</b> Кичик бизнеснинг иқтисодий тармоқлари бўйича ривожланиш тенденциялари.....                                                                                    | 340 |
| <b>Numonjonova N.A.</b> Kichik biznesni rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish                                                                    | 344 |
| <b>Абдулазизов А.А.</b> Гидроэнергетика саноати ва унда ресурс тежаш жараёнларининг хорижий тажрибалари.....                                                                        | 348 |
| <b>Muradov O.U.</b> Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....                                    | 352 |
| <b>Saidova M.J.</b> Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlari.....                         | 356 |
| <b>Umirova G.Sh.</b> Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida rentabellik ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash metodikasini takomillashtirish..... | 360 |
| <b>Narmanov U.A., Nazarov J.B., Tursunaxmadov X.Sh.</b> Moliyaviy risklarning iqtisodiy ahamiyati va uni boshqarishning zarurligi: risk tushunchasi va uning turlari.....           | 365 |
| <b>Nosirov S.N.</b> Barqaror moliyalashtirish global bozorlari: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish muammolari.....                                                              | 369 |
| <b>Farmanov J.Z., Sanetullaev A.E.</b> Modeling of economic basis and forecast indicators of innovation transformation processes in agricultural entrepreneurship.....              | 373 |
| <b>Mirzataev S.M.</b> Integration of digital and smart technologies in increasing the ecological resilience of the agricultural system.....                                         | 376 |
| <b>Kidirniyazov A.Sh.</b> Development of artificial intelligence-based service monitoring systems for construction quality control.....                                             | 379 |
| <b>Абдуллаева Ш.Э.</b> Халқаро индекслар асосида ижтимоий ҳимоя тизимини молиялаштириш.....                                                                                         | 382 |
| <b>Mirjalolova M.M.</b> Sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishdagi o‘rni.....                            | 389 |
| <b>Baytanov O‘.M.</b> Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyatlari.....                                                                               | 394 |
| <b>Умаров А.Т.</b> Особенности развития социальной сферы в Узбекистане.....                                                                                                         | 400 |

**SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISHNING TARMOQ  
XUSUSIYATLARI**

**ОСОБЕННОСТИ УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ ПРОДУКЦИИ НА  
ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ, СВЯЗАННЫЕ С ОТРАСЛЮ**

**INDUSTRY-RELATED FEATURES OF PRODUCT QUALITY MANAGEMENT IN  
INDUSTRIAL ENTERPRISES**

**Baytanov O‘ralboy Miraqul o‘g‘li**

Jizzax politexnika instituti Iqtisodiyot va menejment kafedrası dotsenti v.b., PhD

<https://orcid.org/0000-0003-3339-0650>

**Annotatsiya**

Maqolada sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning tarmoqlar kesimidagi umumiy va o‘ziga xos jihatlari tadqiq qilindi. O‘tkazilgan tadqiqotlar asosida shakllangan ilmiy xulosalarni inobatga olib, O‘zbekiston sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan tarmoq xususiyatlariga moslashtirilgan adaptiv sifat menejmenti modelini amalga oshirish mexanizmining konseptual tuzilmasi ishlab chiqildi va mazkur modelning milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va sanoat samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-amaliy vositasi ekanligi asoslandi.

**Kalit so‘zlar:** Sanoat korxonalari, tarmoq xususiyatlari, adaptiv sifat menejmenti, mahsulot sifatini boshqarish, sanoat tarmoqlari, sifatni boshqarish amaliyoti.

В статье исследованы общие и специфические особенности управления качеством продукции на промышленных предприятиях в разрезе отраслей. На основе результатов проведённых исследований и сформулированных научных выводов разработана концептуальная структура механизма реализации адаптивной модели менеджмента качества, учитывающей отраслевые особенности промышленных предприятий Узбекистана. Обосновано, что данная модель является важным научно-практическим инструментом повышения эффективности управления качеством продукции, а также способствует укреплению конкурентоспособности национальной экономики и повышению эффективности промышленного производства.

**Ключевые слова:** Промышленные предприятия, отраслевые особенности, адаптивный менеджмент качества, управление качеством продукции, отрасли промышленности, практика управления качеством.

The article examines the general and sector-specific aspects of product quality management in industrial enterprises. Based on the findings of the conducted research and taking into account the developed scientific conclusions, a conceptual framework for the implementation mechanism of an adaptive quality management model tailored to the specific characteristics of industrial sectors in Uzbekistan was developed. The study substantiates that this model serves as an important scientific and practical tool for enhancing the effectiveness of product quality management in industrial enterprises, while contributing to improving the competitiveness of the national economy and increasing industrial efficiency.

**Keywords:** Industrial enterprises, sector-specific characteristics, adaptive quality management, product quality management, industrial sectors, quality management practices.

Bugungi kunda sanoat ishlab chiqarishining barqaror rivojlanishi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Sanoat korxonalari faoliyatining samaradorligi

ishlab chiqarish hajmi bilan bir qatorda mahsulot sifati, uning iste'mol xususiyatlari, ishonchliligi va bozordagi raqobatbardoshligi bilan ham belgilanadi. Global iqtisodiyotda raqobatning kuchayishi, texnologik yangilanishlarning jadallashuvi hamda iste'molchilar ehtiyojlarining o'zgarishi korxonalarda mahsulot sifatini boshqarish tizimlarini takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda [1]. Mahsulot sifati sanoat korxonasining ishlab chiqarish faoliyati natijasini ifodalovchi eng muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib, u korxonaning iqtisodiy samaradorligi, bozor ulushi va uzoq muddatli rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Sifatni boshqarishning samarali tashkil etilishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, nuqsonlar ulushini qisqartirish, resurslardan oqilona foydalanish va iste'molchilar talablarini qondirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli zamonaviy sanoat korxonalarida sifatni boshqarish ishlab chiqarish jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda [2].

Sanoatning turli tarmoqlarida ishlab chiqarish texnologiyalari, foydalaniladigan resurslar, mahsulotning funksional xususiyatlari va sifat ko'rsatkichlari o'zaro sezilarli darajada farq qiladi. Masalan, mashinasozlik tarmog'ida mahsulotning texnik aniqligi va ishonchliligi ustuvor ahamiyat kasb etsa, oziq-ovqat sanoatida xavfsizlik va iste'mol xususiyatlari, kimyo sanoatida esa texnologik barqarorlik va ekologik talablar muhim o'rin tutadi. Bunday farqlar mahsulot sifatini boshqarish usullarini ishlab chiqishda har bir tarmoqning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi [3].

Mazkur holatlar sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning tarmoqlar kesimidagi umumiy va o'ziga xos jihatlarini ilmiy asosda tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Tarmoq xususiyatlarini hisobga oluvchi boshqaruv yondashuvlarini ishlab chiqish korxonalarda mahsulot sifatini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirish, resurslardan foydalanish natijadorligini yaxshilash hamda milliy sanoatning raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mahsulot sifatini boshqarish korxona faoliyatining samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hamda raqobatbardoshlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar sifat menejmentining an'anaviy nazariyalaridan raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va Quality 4.0 konsepsiyasiga asoslangan yondashuvlarga o'tish tendensiyasi kuzatilayotganligini ko'rsatmoqda. Bunda sifatni boshqarish nafaqat mahsulotning yakuniy sifatini nazorat qilish, balki ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini yagona boshqaruv tizimiga integratsiyalash vositasi sifatida talqin qilinmoqda [4].

Keyingi yillardagi tadqiqotlarda sifat menejmentining tarmoq xususiyatlari tobora ko'proq e'tibor qaratilayotgan yo'nalishlardan biriga aylandi. Xususan, ishlab chiqarish korxonalarida olib borilgan bibliometrik tahlillar sifat menejmenti bo'yicha ilmiy ishlarning asosiy qismi mashinasozlik, avtomobilsozlik, elektronika va oziq-ovqat sanoati misolida olib borilganligini ko'rsatadi. Bunda tadqiqotlarning aksariyati ishlab chiqarish samaradorligi, nuqsonlarni kamaytirish, hamda iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish masalalariga qaratilgan. Shu bilan birga, turli sanoat tarmoqlarining texnologik xususiyatlarini qiyosiy baholovchi tadqiqotlar soni nisbatan kamligi qayd etilgan [5].

Baran, Erhan va Polat, Tulay Korkusuz tomonidan o'tkazilgan tahlilda Industry 4.0 texnologiyalarining sifat menejmentiga ta'siri tizimlashtirilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, aqlli ishlab chiqarish, narsalar interneti (IoT), katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) va sun'iy intellektidan foydalanish sifatni nazorat qilish imkoniyatlarini sezilarli kengaytiradi. Biroq mualliflar ushbu vositalarni qo'llashda tarmoqning texnologik xususiyatlarini hisobga olish zarurligini alohida qayd etganlar [6].

So'nggi yillarda amalga oshirilgan tizimli adabiyotlar sharhlari sifat menejmentining raqamli transformatsiya bilan uyg'unlashuvi, korxonalarning innovatsion salohiyati va barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Biroq mavjud tadqiqotlarda asosiy e'tibor sifat menejmentining umumiy tamoyillariga qaratilgan bo'lib, sanoat tarmoqlarining o'ziga xos ishlab chiqarish sharoitlarini hisobga oluvchi adaptiv boshqaruv modellari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi ta'kidlanadi [7].

Yuqorida keltirilgan holatlarni inobatga olib, sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning tarmoqlar kesimidagi umumiy va o‘ziga xos jihatlari tadqiq etish lozim. Ushbu maqsadga erishish uchun dastlab tarmoqlar kesimida mahsulot sifatini boshqarishning umumiy xususiyatlarini tahlil qilish orqali 1-jadvalda keltirilgan natijalarni olishga erishildi.

**1-jadval**

**Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyatlarining umumiy jihatlari tahlili**

| <b>№</b> | <b>Sanoat tarmog‘i</b> | <b>Mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyati</b> | <b>Mahsulot sifatini boshqarish usullari</b>     | <b>Mahsulot sifatini nazorat qilish mezonlari</b> | <b>Tarmoq uchun xos bo‘lgan sifat omillari</b> |
|----------|------------------------|-----------------------------------------------------------|--------------------------------------------------|---------------------------------------------------|------------------------------------------------|
| 1        | Oziq-ovqat sanoati     | Xavfsizlik, sanitariya va saqlanish muddati               | HACCP, ISO 22000, laboratoriya nazorati          | Mikrobiologik ko‘rsatkichlar, yaroqlilik muddati  | Gigiyena talablari, tez buziluvchanlik         |
| 2        | Mashinasozlik          | Aniqlik, mustahkamlik, ishonchlilik                       | TQM, Six Sigma, standartlashtirish               | Texnik parametrlar, defektlar soni                | Yuqori aniqlikdagi ishlab chiqarish            |
| 3        | Kimyo sanoati          | Ximiyaviy tarkib barqarorligi                             | Laboratoriya tahlili, ISO standartlari           | Reaktiv tozaligi, xavfsizlik ko‘rsatkichlari      | Ekologik xavf, xavfli moddalar                 |
| 4        | To‘qimachilik sanoati  | Material sifati, rang barqarorligi                        | SPC (statistik jarayon nazorati), sertifikatlash | Matoning chidamliligi, rang sifati                | Xom ashyo sifatining ta’siri                   |
| 5        | Elektrotexnika         | Xavfsizlik va funksional ishonchlilik                     | ISO 9001, avtomatik testlash                     | Energiya sarfi, ishlash muddati                   | Innovatsiya va texnologiya tez o‘zgarishi      |
| 6        | Farmatsevtika          | Samaradorlik va xavfsizlik                                | GMP, GLP, qat’iy laboratoriya tekshiruvi         | Biologik muvofiqlik, sterillik                    | Davlat nazorati yuqoriligi                     |
| 7        | Qurilish materiallari  | Mustahkamlik va standartlarga moslik                      | Sertifikatlash, texnik sinovlar                  | Bosimga chidamlilik, sifat standarti              | Tabiiy resurslar sifati                        |
| 8        | Metallurgiya           | Metall tarkibi va mexanik xususiyatlar                    | Texnik monitoring, avtomatik nazorat             | Qattqlik, elastiklik                              | Yuqori harorat jarayonlari                     |

Manba. Muallif tomonidan tuzilgan.

Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyatlarining umumiy jihatlari tahlil qilish orqali oziq-ovqat, mashinasozlik, kimyo, to‘qimachilik, elektrotexnika, farmatsevtika, qurilish materiallari va metallurgiya kabi sanoat tarmoqlarida mahsulot sifatini boshqarishning umumiy maqsadi bir xil bo‘lsa-da, sifat boshqaruvini amalga oshirish vositalari va baholash mezonlari o‘zaro farq qilishi aniqlandi.

Sanoat tarmoqlari kesimida mahsulot sifatini boshqarishning umumiy xususiyatlari tahlili mahsulot sifatini boshqarish tizimi universal mexanizm sifatida emas, balki tarmoq xususiyatlariga moslashtirilgan adaptiv boshqaruv modeli sifatida shakllantirilishi lozim bo‘ladi, degan konseptual

ahamiyat kasb etuvchi ilmiy xulosaga kelindi. Ushbu holat har bir sanoat sohasida mahsulotning funksional maqsadi, xavf darajasi, texnologik jarayonlari va iste'mol qiymati turlichaligi sababli, turli tarmoq mahsulotlari sifat ko'rsatkichlarining o'zaro differensiallashuvini keltirib chiqarishi bilan izohlanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'tkazilgan tahlillar sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish amaliyotida tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqib, o'zaro farqlanish holatlari ham ko'zga tashlanishini ko'rsatdi. Tahlillarga ko'ra, sanoat tarmoqlarida mahsulot sifatini boshqarish amaliyoti boshqaruvning maqsadi, sifatni baholash mezonlari, nazorat mexanizmlari va risk darajasi bo'yicha bir biridan sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatdi.



**1-rasm. Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish amaliyotining tarmoq xususiyatlari bo'yicha o'zaro farqlanish mezonlari**

Manba. Muallif tomonidan tuzilgan.


Umuman olganda, sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish xususiyatlarining tarmoqlar kesimidagi o'zaro farqlanishi ishlab chiqarish texnologiyasi, mahsulotning funksional vazifasi, risk darajasi va bozor talablari bilan belgilanadi. Shu sababli zamonaviy sanoat siyosatida mahsulot sifatini boshqarishning tarmoqqa moslashtirilgan adaptiv modelini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu esa milliy sanoatning raqobatbardoshligini oshirish, mahsulot eksportini kengaytirish va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim institutsional sharti sifatida namoyon bo'ladi.

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida shakllangan ilmiy xulosalarni inobatga olib, O'zbekiston sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan tarmoq xususiyatlariga moslashtirilgan adaptiv sifat menejmenti modelini amalga oshirish mexanizmining konseptual tuzilmasini ishlab chiqishga erishildi. Ishlab chiqilgan model sanoat tarmoqlarining texnologik, institutsional va bozor xususiyatlarini hisobga olgan holda mahsulot sifatini boshqarish tizimini shakllantirish va takomillashtirishning kompleks yondashuvini o'zida aks ettirganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Taklif etilayotgan adaptiv sifat menejmenti modelini O'zbekistonning turli sanoat tarmoqlarida xo'jalik faoliyati yuritayotgan korxonalar amaliyotlariga joriy etilishi quyidagi to'rt bosqichlarda (2-rasmga qarang) amalga oshiriladi:

birinchi bosqichida mahsulot sifatini boshqarish tizimiga ta'sir ko'rsatuvchi boshlang'ich omillar keltirilgan bo'lib, ular davlat siyosati va me'yoriy-huquqiy baza, korxonaning strategik maqsadlari, bozor talabi va iste'molchi kutilmalari, texnologik salohiyat, inson kapitali hamda moliyaviy resurslardan tashkil topishi belgilab berilgan. Mazkur omillar sifat menejmenti tizimining shakllanishi uchun tashqi va ichki institutsional muhitni belgilab berishi bilan xarakterlanadi;

adaptiv modelni amaliyotga joriy etishning ikkinchi bosqichida tarmoq xususiyatlarini tahlil qilish va moslashtirish jarayoni aks ettirilgan bo'lib, unda mahsulotning funksional xususiyatlari, texnologik jarayonlar, risk va xavf darajalari, me'yoriy talablar hamda raqobat muhiti baholanadi. Ushbu jarayon sanoat tarmoqlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash orqali mahsulot sifatini

boshqarish strategiyasini differensiallashgan tarzda shakllantirish imkonini beradi. Shu jihatdan, adaptiv yondashuv tarmoq ehtiyojlariga mos maqsadlar, mezonlar va baholash ko‘rsatkichlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi;



**2-rasm. Mahsulot sifatini boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan tarmoq xususiyatlariga moslashtirilgan adaptiv sifat menejmenti modelini amalga oshirish mexanizmi**  
Manba. Muallif tomonidan tuzilgan.

uchinchi bosqichda esa adaptiv sifat menejmenti tizimini amalga oshirish mexanizmi keltirilgan bo‘lib, bunda mahsulot sifatini boshqarish maqsadi va samaradorlik ko‘rsatkichlarini belgilash, ishlab chiqarish jarayonlarini standartlashtirish va optimallashtirish, raqamlashtirilgan monitoring tizimlarini joriy etish, risklarni boshqarish, xodimlarning malakasini oshirish hamda mahsulot sifatini ta'minlash jarayonlarini qamrab oladi. Ushbu jarayonda ISO, GMP, HACCP kabi xalqaro standartlar, shuningdek internet ashyolari (IoT), statistik jarayon nazorati (SPC), Big Data va sun'iy intellekt (AI) texnologiyalaridan foydalanish sifat boshqaruvining institutsional va texnologik asoslarini mustahkamlaydi;

to'rtinchi bosqichda mahsulot sifatini ta'minlashning nazorat, tahlil va doimiy takomillashtirish mexanizmi yoritilgan bo‘lib, bunda KPI asosida sifat ko‘rsatkichlarini baholash, ma'lumotlarni tahlil qilish, nuqsonlarning ildizi sabablarini aniqlash (Root Cause Analysis – RCA), tuzatish choralari ishlab chiqish hamda PDCA sikli asosida doimiy takomillashtirish jarayonlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv sifat boshqaruvining uzluksiz va qayta aloqador tizim sifatida ishlashini ta'minlaydi.

Tadqiqot davomida sanoat tarmoqlarining texnologik, tashkiliy va iqtisodiy xususiyatlari mahsulot sifatini boshqarish tizimlarining samaradorligiga sezilarli ta'sir etishi aniqlandi. Xususan, turli tarmoqlarda sifat mezonlari va nazorat usullari bir-biridan farq qilishi sababli universal

yondashuvlar har doim ham kutilgan natijani bermasligi ma’lum bo’ldi. Bu esa sifat menejmenti tizimlarini ishlab chiqishda tarmoq xususiyatlarini hisobga olish zarurligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalariga ko’ra, adaptiv sifat menejmenti modeli korxona faoliyat yuritayotgan tarmoqning texnologik darajasi, ishlab chiqarish jarayonlari, resurslar tuzilmasi va mahsulotga qo’yiladigan talablarni inobatga olgan holda shakllantirilganda yuqori samaradorlikka erishish mumkinligi asoslandi. Bunday yondashuv nuqsonlar darajasini kamaytirish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish hamda iste’molchilar talabini to’liqroq qondirish imkonini beradi.

Shuningdek, adaptiv yondashuv sifatni boshqarish tizimining moslashuvchanligini oshirib, turli sanoat tarmoqlari o’rtasidagi farqlarni hisobga olishga xizmat qiladi. Bu esa korxonalarda sifat menejmenti tizimini bir xil andozaga solish o’rniga, ularni tarmoq xususiyatlariga mos ravishda takomillashtirish zarurligini ko’rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Sousa, R., & Voss, C. A. (2002). Quality Management Re-visited: A Reflective Review and Agenda for Future Research. *Journal of Operations Management*, 20(1), 91–109. [https://doi.org/10.1016/S0272-6963\(01\)00088-2](https://doi.org/10.1016/S0272-6963(01)00088-2)
2. Kaynak, H. (2003). The Relationship Between *Total* Quality Management Practices and Their Effects on Firm Performance. *Journal of Operations Management*, 21(4), 405–435. [https://doi.org/10.1016/S0272-6963\(03\)00004-4](https://doi.org/10.1016/S0272-6963(03)00004-4)
3. Prajogo, D. I., & Sohal, A. S. (2003). The Relationship Between *TQM* Practices, Quality Performance and Innovation Performance. *International Journal of Quality & Reliability Management*, 20(8), 901–918. <https://doi.org/10.1108/02656710310493625>
4. Liu, HC., Liu, R., Gu, X. *et al.* From total quality management to Quality 4.0: A systematic literature review and future research agenda. *Front. Eng. Manag.* 10, 191–205 (2023). <https://doi.org/10.1007/s42524-022-0243-z>
5. Deli, M. M., Amaliyah, A., Harun, S. N., & Purwati, A. A. (2025). Bibliometric Analysis for Quality Management in The Manufacturing Sector: 2020 to 2024. *Journal of Applied Engineering and Technological Science (JAETS)*, 6(2), 802-819. <https://doi.org/10.37385/jaets.v6i2.6454>
6. Baran, E.; Korkusuz Polat, T. Classification of Industry 4.0 for Total Quality Management: A Review. *Sustainability* 2022, 14, 3329. <https://doi.org/10.3390/su14063329>
7. Alkhatib F, Alsadi J, Antony J, Sony M, Bhat S, Lameijer B, Maalouf M (2026), "Quality management and operational performance: a systematic literature review". *International Journal of Productivity and Performance Management*, Vol. 75 No. 11 pp. 54–81, doi: <https://doi.org/10.1108/IJPPM-02-2025-0149>